BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINI INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Andijon che tillari instituti tadqiqotchisi

Mavluda Abduraimova Anvarbek qizi

mavludaabduraimova81gmail.com

https://orcid.org/ **0009-0000-9147-6917**

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan bo’lib, limit tadqiqotda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion-pedagogik kompetentligini rivojlantirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, ijodiy va tanqidiy fikrlashini shakllantirish hamda ta’lim jarayonini loyihalash ko‘nikmalarini rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Shuningdek, innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning motivatsion, kognitiv, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv komponentlari asosida metodik yondashuv taklif etilgan. Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida interfaol ta’lim metodlari, muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, raqamli ta’lim vositalari hamda refleksiv yondashuvdan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisi, innovatsion pedagogik faoliyat, kasbiy kompetentlik, innovatsion kompetentlik, pedagogik tayyorgarlik, metodika, pedagogik texnologiya, raqamli ta’lim, interfaol metodlar, refleksiv yondashuv.

УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА К ИННОВАЦИОННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Научный сотрудник Андижанского института иностранных языков

Мавлюда Абдураимова Анварбек кызы

mavludaabduraimova81gmail.com

https://orcid.org/ 0009-0000-9147-6917

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и методологические основы совершенствования методики подготовки будущих учителей английского языка к инновационной педагогической деятельности. Исследование сосредоточено на развитии инновационной и педагогической компетентности будущих учителей английского языка, эффективном использовании современных педагогических и информационно-коммуникационных технологий, формировании творческого и критического мышления, а также развитии навыков проектирования образовательного процесса. Предлагается также методологический подход, основанный на мотивационном, познавательном, деятельностно-ориентированном и рефлексивном компонентах подготовки к инновационной педагогической деятельности. Анализируются возможности использования интерактивных методов обучения, проблемно-ориентированного обучения, проектного обучения, цифровых средств обучения и рефлексивного подхода в процессе подготовки будущих учителей к профессиональной деятельности.

Ключевые слова: будущий учитель английского языка, инновационная педагогическая деятельность, профессиональная компетентность, инновационная компетентность, педагогическая подготовка, методика, педагогические технологии, цифровое образование, интерактивные методы, рефлексивный подход.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF PREPARING FUTURE ENGLISH TEACHERS FOR INNOVATIVE PEDAGOGICAL ACTIVITY

Researcher at the Andijan Institute of Foreign Languages

Mavluda Abduraimova Anvarbek qizi

mavludaabduraimova81gmail.com

https://orcid.org/ **0009-0000-9147-6917**

Abstract: This article discusses the theoretical and methodological foundations of improving the methodology for preparing future English teachers for

innovative pedagogical activities, and the research focuses on the development of innovative and pedagogical competence of future English teachers, the effective use of modern pedagogical and information and communication technologies, the formation of creative and critical thinking, and the development of skills for designing the educational process. Also, a methodological approach based on the motivational, cognitive, activity-oriented and reflexive components of training for innovative pedagogical activities is proposed. The possibilities of using interactive teaching methods, problem-based learning, project-based learning, digital learning tools, and a reflexive approach in the process of preparing future teachers for professional activity are analyzed.

Keywords: future English language teacher, innovative pedagogical activity, professional competence, innovative competence, teacher education, teaching methodology, pedagogical technologies, digital education, interactive methods, reflective approach.

Bugungi kunda ta’lim tizimida yuz berayotgan globallashuv, raqamlashtirish va innovatsion jarayonlar pedagog kadrlarni tayyorlash mazmuni va metodikasini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirish, ta’lim oluvchilarning kommunikativ, kreativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilariga qo‘yiladigan kasbiy talablarni yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bo‘lajak mutaxassislarni nafaqat mavjud pedagogik faoliyatni amalga oshirishga, balki ta’lim jarayoniga yangiliklarni mustaqil ravishda joriy etish, pedagogik muammolarni innovatsion yondashuv asosida hal qilish va o‘z kasbiy faoliyatini muntazam takomillashtirishga tayyorlash muhim pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish va ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish davlat ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri

hisoblanadi[1]. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta’lim sifatini oshirish, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash, yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan[2]. Xorijiy tillarni o‘qitish tizimini takomillashtirish esa xalqaro ta’lim va mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim sharti sifatida qaralmoqda. Bu jarayon bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini maqsadli ravishda shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Innovatsion pedagogik faoliyat o‘qituvchining ta’lim jarayonidagi mavjud yondashuvlarni takrorlash bilangina cheklanmay, pedagogik faoliyat mazmuni, shakl va metodlarini yangilash, yangi pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, ta’lim natijalarini tahlil qilish hamda o‘z faoliyatini refleksiv asosda takomillashtirish qobiliyatini nazarda tutadi. Shu sababli bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining innovatsion faoliyatga tayyorgarligi uning kasbiy bilimlari bilan bir qatorda innovatsion fikrlashi, ijodkorligi, pedagogik tashabbuskorligi, raqamli kompetentligi, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilishi va pedagogik faoliyat natijalarini baholay olish ko‘nikmalari bilan belgilanadi.

Mazkur muammo bo‘yicha xorijiy ilmiy adabiyotlarda pedagogning innovatsion faoliyati, o‘qituvchi kompetentligini rivojlantirish va ta’lim jarayoniga innovatsiyalarni joriy etish masalalari turli nazariy va metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Xususan, innovatsion ta’lim, o‘qituvchi kasbiy rivojlanishi, refleksiv faoliyat, konstruktivistik ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv va raqamli pedagogika masalalari zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlarini tashkil etadi. Biroq mavjud tadqiqotlarda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini aynan innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonining motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv komponentlarini o‘zaro integratsiyalashgan holda rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalasi alohida pedagogik tizim sifatida yetarlicha kompleks yoritilmagan.

Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda ham bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish, pedagogik mahoratini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalardan foydalanishga tayyorlash va ta’lim jarayonini raqamlashtirish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta’lim mazmuni, pedagogik shart-sharoitlar, interfaol va muammoli ta’lim metodlari, loyiha faoliyati, raqamli ta’lim vositalari hamda refleksiv mexanizmlarning yagona metodik tizim sifatida uyg‘unlashtirilishi alohida tadqiqotni talab etadi.

Muammoning dolzarbligi, bir tomondan, oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion faoliyatga tayyorgarligiga qo‘yilayotgan talablarning ortib borayotgani, ikkinchi tomondan esa, mazkur tayyorgarlikni ta’minlovchi metodik mexanizmlarning zamonaviy ta’lim ehtiyojlariga to‘liq moslashtirilmaganligi o‘rtasidagi ziddiyat bilan belgilanadi. Ushbu ziddiyatni bartaraf etish uchun bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning mazmuni, shakllari, metodlari, vositalari va pedagogik shart-sharoitlarini tizimli ravishda takomillashtirish zarur.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning nazariy-metodik asoslarini ishlab chiqish va uning samaradorligini pedagogik tajriba-sinov asosida aniqlashdan iborat.

Tadqiqot doirasida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligining mazmun-mohiyatini aniqlash, uning tarkibiy komponentlarini belgilash, tayyorgarlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlarni asoslash, innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan metodikasini ishlab chiqish hamda uning samaradorligini tajriba-sinov orqali baholash asosiy vazifalar sifatida belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy muammosi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonida kasbiy-pedagogik bilim, innovatsion fikrlash, amaliy faoliyat va refleksiv kompetensiyalarni yaxlit tizim sifatida

rivojlantirish imkonini beruvchi samarali metodik mexanizmlarni aniqlash va asoslashdan iborat.

O‘zbekistonda xorijiy tillarni, xususan, ingliz tilini o‘qitish sifatini oshirish ta’lim siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanmoqda. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida 2030-yilgacha “Ibrat farzandlari” loyihasi orqali xorijiy tillarni bepul onlayn o‘rganuvchi yoshlar sonini 7 million nafarga, xorijiy tillarga o‘qitiladigan fuqarolar sonini 2 million nafarga, xalqaro til imtihonlari xarajatlari qoplab beriladigan yoshlar sonini esa 90 ming nafarga yetkazish maqsadlari belgilangan. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlariga jalb etiladigan xorijiy til mutaxassislarining yillik sonini 1 000 nafarga yetkazish ko‘zda tutilgan[3].

Mazkur ko‘rsatkichlar ingliz tili o‘qituvchisidan faqat til bilimiga ega bo‘lishni emas, balki raqamli texnologiyalar, interfaol metodlar, loyiha asosida o‘qitish, kreativ va tanqidiy fikrlash hamda innovatsion pedagogik faoliyatni tashkil etish kompetensiyalariga ega bo‘lishni talab etadi. Bu ehtiyoj amaliy natijalar bilan ham tasdiqlanadi: 2023/2024-o‘quv yilining yakuniga ko‘ra xorijiy mutaxassislar jalb qilingan 500 ta maktabda o‘quvchilarning xorijiy tillarni egallash darajasi o‘rtacha 5 foizdan 15 foizgacha oshgan, xalqaro til sertifikatini olgan o‘quvchilar soni esa 8 951 nafarga yetib, 2023-yildagi 5 296 nafarga nisbatan 1,4 baravar ko‘paygan[4].

Shu sababli oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga maqsadli va tizimli tayyorlash metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-pedagogik zarurat hisoblanadi.

Asosiy statistik ko‘rsatkichlar

№	Ko‘rsatkich	Amaldagi holat	2030-yil maqsadi
1	“Ibrat farzandlari” orqali xorijiy tillarni bepul o‘rganuvchi yoshlar	3 000 000	7 000 000
2	Kasb-hunar va xorijiy tillarga o‘qitiladigan fuqarolar	220 000	2 000 000

3	Xorijiy til mutaxassislarini maktablarga jalb etish	500 nafar/yil	1 000 nafar/yil
4	Xalqaro til imtihoni xarajatlari qoplanadigan yoshlar	15 000	90 000
5	“2+6” dasturi orqali xorijiy tillarga qamrab olinadigan yoshlar	—	100 000
6	Xorijiy mutaxassislar jalb qilingan maktablar	500 ta	—
7	Ushbu maktablarda til bilish darajasining o‘sishi	5% → 15%	—

Tadqiqot natijalari bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonining mazmuni va metodikasini takomillashtirishda amaliy ahamiyatga ega. Ishlab chiqilgan metodik yondashuvni oliy ta’lim muassasalarining pedagogik yo‘nalishlarida, xususan, “Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili)”, “Ingliz tili o‘qitish metodikasi”, “Pedagogika” va turdosh fanlarni o‘qitish jarayonida qo‘llash mumkin.

Metodikaning amaliy tadbiqi bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini shakllantirishga yo‘naltirilgan motivatsion, kognitiv, faoliyatga yo‘naltirilgan va refleksiv komponentlar asosida tashkil etiladi. Bunda muammoli ta’lim, loyiha asosida o‘qitish, “case-study”, “flipped classroom”, hamkorlikda o‘qitish, raqamli ta’lim platformalaridan foydalanish hamda pedagogik refleksiya metodlaridan kompleks foydalanish nazarda tutiladi.

Taklif etilayotgan metodika bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion pedagogik g‘oyalarni ishlab chiqish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini tanlash va amaliyotga tatbiq etish, o‘quv jarayonini mustaqil loyihalash, pedagogik muammolarni ijodiy hal etish va o‘z faoliyatini refleksiv baholash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv asosida ishlab chiqilgan

topshiriqlar, amaliy mashg‘ulotlar va diagnostik mezonlardan pedagogik amaliyot jarayonida ham foydalanish imkoniyati mavjud.

Metodikaning amaliy samaradorligini aniqlashda bo‘lajak o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligi yuqori, o‘rta va past darajalar bo‘yicha baholanishi, natijalar tajriba va nazorat guruhlari kesimida qiyosiy tahlil qilinishi mumkin. Bu esa taklif etilayotgan metodikaning samaradorligini obyektiv pedagogik va statistik mezonlar asosida aniqlash imkonini beradi.

Xulosa sifatida aytganda tadqiqot natijalari bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash zamonaviy oliy pedagogik ta’limning muhim vazifalaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Ta’limning raqamlashtirilishi, yangi pedagogik texnologiyalarning jadal rivojlanishi va xorijiy tillarni o‘qitishga bo‘lgan ehtiyojning ortishi o‘qituvchining innovatsion faoliyatga tayyorgarligini kasbiy kompetentlikning muhim tarkibiy qismi sifatida qarashni talab etmoqda.

Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlashni takomillashtirish uchun tayyorgarlik jarayonini faqat nazariy bilimlarni egallash bilan cheklamasdan, motivatsiya – bilim – amaliy faoliyat – refleksiya uzviyligi asosida tashkil etish zarur. Bunday yondashuv bo‘lajak mutaxassisda innovatsion pedagogik faoliyatni mustaqil loyihalash, yangi pedagogik texnologiyalarni tanlash, ularni ta’lim jarayoniga moslashtirish va natijadorligini baholash kompetensiyalarini shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasining samaradorligini ta’minlovchi asosiy pedagogik shart-sharoitlar sifatida innovatsion ta’lim muhitini yaratish, amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, raqamli pedagogik vositalardan foydalanish, loyiha va muammoli ta’limni integratsiyalash hamda refleksiv faoliyatni muntazam tashkil etish belgilandi.

Shuningdek, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorgarligini baholashda motivatsion, kognitiv, operatsion-faoliyat va refleksiv mezonlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur mezonlar asosida

aniqlangan tayyorgarlik darajalari metodikaning samaradorligini aniqlash va ta’lim jarayoniga zarur metodik tuzatishlar kiritish imkonini beradi.

Umuman olganda, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish va zamonaviy ta’lim talablariga mos pedagogik faoliyatni tashkil etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois mazkur metodikani oliy ta’limning pedagogik yo‘nalishlari o‘quv jarayoniga tizimli ravishda joriy etish ta’lim sifatini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida. – Toshkent, 2023.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish va xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. – Toshkent, 2021.

4. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2006. – 158 b.

5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.

6. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2008. – 180 b.